

ANDIJON VILOYATIDA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASI



Mamlakatimizni dunyoning rivojlangan davlatlari qatotidan o'rin egallashi yo'lida olib borilayotgan islohatlarning barchasi inson mafaatlari yanada ko'tarishga qaratilgan. Sog'liqni saqlash tizimini rivojlantirish, tibbiy xizmat sifatini oshirish, tibbiyot xodimlarining jamiyatdagi o'rni va maqomini kuchaytirish shular jumlasidaddir. Bu borada davlat–xususiy sherikchilik asosida xususiy tibbiyotni yanada rivojlantirish, sog'lom raqobatni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Andijon viloyatida 2019 yilda 149 ta sog'liqni saqlash muassasalari faoliyat ko'rsatdi. Ulardagi bemorlar uchun mavjud o'rinlar soni 17566 tani tashkil etdi. Yil davomida shifoxona muassasalarida 586,6 ming nafar bemorlar davolangan.

Ma'lumot uchun:




Shifoxona – tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va rehabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega bo'lgan, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

Sifoxona muassasalarida zaruriy anjomlar bilan jixozlangan va band bo'lishi yoki band bo'lmasligidan qat'iy nazar, kechayu-kunduz davomida bemorlarni qabul qilish uchun tayyor turgan **shifoxona o'rinlari** hisobga olinadi

**2019 yilda Andijon viloyati shifoxona muassasalarining
asosiy ko'rsatkichlari, (birlik)**

	Shifoxonalar soni	Davolangan bemorlar soni	O'rinlar soni
Viloyat bo'yicha	149	586603	17566
Andijon sh	49	233730	5389
Xonobod sh	3	8971	171
tumanlar:			
Andijon	7	26894	635
Asaka	12	37010	2155
Baliqchi	3	28725	430
Bo'ston	1	9584	125
Buloq boshi	6	23260	311
Jalaquduq	2	27124	430
Izboskan	12	30898	862
Marxamat	4	22601	4236
Ulug'nor	1	7278	105
Oltinko'l	6	15708	361
Paxtaobod	21	33050	640
Xo'jaobod	4	17220	334
Shahrixon	12	37884	850
Qo'rg'ontepa	6	26666	532

2019 yil yakuni bo'yicha Andijon viloyatidagi shifoxona muassasalarida jami 7641 nafar oily toifali shifokorlar xizmat qilgan. Jami shifokorlarning 43,6 % ayollardan iborat.



Ma'lumot uchun :

Shifokorlarning umumiy soniga – sog'liqni saqlash muassasalarida, sanatoriy-kurort muassasalarida, tibbiyot xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash muassasalarida, aholini ijtimoiy muhofazasida, ilmiy izlanish institutlarida, sog'liqni saqlash boshqaruv organi apparatida ishlayotgan oily tibbiyot ma'lumotiga ega barcha mutaxassislar kiradi.




Andijon viloyatida 2019 yilda sog'liqni saqlash sohasida 112 ta kichik biznes sub'ektlari faoliyat ko'rsatgan. Ushbu muassasalardagi o'rinlar soni 7112 nafar bemorni qabul qilishga mo'jallangan. Jami shifokorlar soni 860 nafarni, o'rta tibbiyot xodimlari soni 738 nafardan iborat.

Andijon viloyati bo'yicha shifokorlar soni dinamikasi, (ming kishi)




2019 yilda Andijon viloyati bo'yicha aholini tibbiyot hodimlari bilan ta'minlanganligi (10 000 aholiga)



Aholini tibbiyot xodimlari bilan ta'minlanganlik dinamikasi, (10 000 aholiga)

	Shifokorlar	O'rta tibbiyot xodimlari
2014 yil	23,4	92,0
2015 yil	23,3	92,9
2016 yil	22,8	91,3
2017 yil	22,7	92,8
2018 yil	24,1	94,6
2019 yil	24,4	96,1

2019 yilda Andijon viloyati shifoxonalarida 30067 nafar o'rta tibbiyot xodimlari xizmat qilgan. Ularning 27238 nafarini yoki (90,6 %) ni ayollar tashkil etgan. Sog'liqni saqlash sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik kerkorxona va mikrofirmalarda jami 738 nafar o'rta tibbiyot xodimlari xizmat qilgan, ularning 659 nafari ayollardan iborat.






Ma'lumot uchun:



O'rta tibbiyot xodimlarining umumiy soniga - sog'liqni saqlash, sanatoriy-kurort muassasalarida, go'daklar uylarida va boshqa muassasalarda ishlayotgan o'rta maxsus tibbiyot ma'lumotiga ega bo'lgan barcha shaxslar kiradi.

2019 yilda Andijon viloyatida bo'yicha 474 ta ambulatoriya-poliklinika muassasalari faoliyat olib borgan. Ulardan 85 tasini qishloq vrachlik punktlari tashkil etadi. Bir smenada qatnovlar soni quvvati 56419 ta bemorlarni qabul qilishga mo'ljallangan.

2019 yilda Andijon viloyatidagi ambulatoriya-poliklinikalar soni, (birlik)




Ma'lumot uchun:



Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soniga – aholining ushbu muassasalarga qatnab yoki shifokorlarning uylarga tashrif buyurishi orqali aholiga davolash profilaktika yordamini ko'rsatuvchi muassasalar kiradi. Ular qatoriga mustaqil poliklinikalar, dispanserlar, shifoxonalarning poliklinika bo'limlari, ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazlari, tibbiy sanitariya qismlar, ambulatoriyalar, QVP lari, mustaqil vrachlik tibbiyot punktlari, ayollar maslaxatxonalari kiradi.



2019 yilda Andijon viloyati bo'yicha 129 tez tibbiy yordam stansiyalari faoliyat olib borgan. Yil davomida chaqiriqlar soni 1223,8 marotaba bo'lib, jami 1363,3 ming nafar bemorlarga tibbiy yordam xizmati korsatilgan.




2019 yil davomida asosiy sinflari bo'yicha 1525,7 ming nafar aholining turli kasalliklarga chalinishi (birinchi marta tashxisi aniqlangan holatlar soni) kuzatildi. Aholi o'rtasida jami kasallikka chalingan bemorlar ichidan nafas olish a'zolari kasalliklari bilan og'riqanlar 25,3 % ni, qon va qon yaratish a'zolari kasalliklari va immun mexanizmiga ta'sir etuvchi ayrim buzilishlar tashxisi bilan kasallanganlar 18,2 % ni, ovqat xazm qilish a'zolari bilan kasallangan bemorlar 11,5 % ni, jarohatlanish, zaharlanishlar va ayrim tashqi sabablar bilan bog'liq asoratlar kasalliklari bo'yicha bemorlar 7,6 % ni, siydik-tanosil tizimi kasalliklari bo'yicha kasallangan bemorlar 7,2 % ni, qon aylanishi tizimi bilan og'riqan bemorlar 4,5 % ni va qolgan 25,7 % ni boshqa turdagi kasalliklarga chalingan bemorlar tashkil etgan




Aholining kasallanishi – yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispenser kuzatuv ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.

2019 yilda aholini kasalliklarga chalinishi , (% da)



**Andijon viloyati aholisining kasalliklarga chalinishi dinamikasi,
(ming holat)**



Andijon viloyati statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (74 224-82-69)